

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“MULTIMEDIA ILOVALAR VOSITASIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI”

Qandimova Nasiba

Buxoro davlat pedagogika instituti, tayanch doktorant.

e-mail: qandimova.nasiba@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0005-0492-8396>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda multimedia ilovalarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash va taqdim etish ko‘nikmalarini shakllantirishda multimedia vositalarining o‘rni yoritilgan. Shuningdek, audio, video, animatsiya, QR-kod va interaktiv topshiriqlardan foydalanishga asoslangan metodika taklif etilgan. Tadqiqot natijalari multimedia ilovalardan foydalanish o‘quvchilarning axborot bilan ishlash faoliyatini faollashtirishi, mustaqil fikrlash va kreativlikni rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: multimedia ilova, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, kreativ yondashuv, boshlang‘ich ta‘lim, raqamli ta‘lim muhiti, QR-kod, interaktiv topshiriqlar, media savodxonlik, o‘quv faoliyati.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ РАБОТЫ С ИНФОРМАЦИЕЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

Кандимова Насиба

Бухарский государственный педагогический институт, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье проанализированы педагогические возможности мультимедийных приложений в развитии компетентности младших школьников по работе с информацией. Раскрыта роль мультимедийных средств в формировании навыков поиска, отбора, анализа, обработки и представления информации. Предложена методика, основанная на использовании аудио-, видеоматериалов, анимации, QR-кодов и интерактивных заданий. Результаты исследования показывают, что применение мультимедийных приложений активизирует деятельность учащихся по работе с информацией, способствует развитию самостоятельного мышления и творческих способностей.

Ключевые слова: мультимедийное приложение, компетентность работы с информацией, креативный подход, начальное образование, цифровая образовательная среда, QR-код, интерактивные задания, медиаграмотность, учебная деятельность.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' INFORMATION PROCESSING COMPETENCE THROUGH MULTIMEDIA APPLICATIONS

Qandimova Nasiba

Bukhara State Pedagogical Institute, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the pedagogical potential of multimedia applications in developing primary school students' information literacy competence. The role of multimedia tools in forming skills of searching, selecting, analyzing, processing, and presenting information is highlighted. In addition, a methodology based on the use of audio, video, animation, QR codes, and interactive tasks is proposed. The results show that the use of multimedia applications enhances students' information-processing activities, promotes independent thinking, and fosters creativity.

Keywords: multimedia application, information literacy competence, creative approach, primary education, digital learning environment, QR code, interactive tasks, media literacy, learning activity.

Kirish. Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda axborot oqimining jadal sur‘atlarda ortib borishi

o'quvchilardan axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etmoqda. Shu sababli axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda mazkur kompetensiyaning dastlabki elementlarini shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi. Ushbu davrda o'quvchilarning qiziqishlari yuqori bo'lib, ular yangi axborotni tez qabul qiladilar va o'zlashtiradilar. Shu bois ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, multimedia ilovalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Multimedia ilovalari matn, audio, video, animatsiya va interaktiv elementlarni birlashtirgan holda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi hamda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Asosiy qism

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi natijasida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bugungi kunda o'quvchilar katta hajmdagi axborot bilan ishlashga duch kelayotgan bo'lsalar-da, ularning aksariyati axborotni tanqidiy tahlil qilish, muhim ma'lumotlarni ajratib olish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalariga yetarli darajada ega emas.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan metodik ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, multimedia ilovalari asosida mazkur kompetensiyani rivojlantirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois multimedia ilovalari vositasida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi multimedia ilovalarining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish, kreativ fikrlash va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va modellash tirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, multimedia ilovalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash maqsadida amaliy tajribalar va pedagogik monitoring usullari qo'llanildi.

"Davra suhbat" metodi. O'quvchilar doira shaklida joylashib, biror muammo yoki savol doirasida o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar. Bunda partalar aylana shaklida joylashtiriladi va o'quvchilar uning atrofidan joy oladilar. Bu ularning bir-birlari bilan **"ko'z aloqasi"**ni o'rnatishlarini ta'minlaydi. Suhbat o'qituvchi tomonidan boshlab beriladi, so'ng o'quvchilardan berilgan savol yuzasidan o'z fikrlarini bayon etish so'raladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim oluvchilarning erkin va mustaqil fikr yuritishi, shuningdek, ularda nutq madaniyatining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Bular esa nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lib, darsliklarda ularning har biri uchun rivojlantiruvchi mashqlar berilgan. Bu mashqlar orqali o'quvchilarda bir vaqtning o'zida nutqiy kompetensiyaning barcha to'rt turi uyg'un holda rivojlanadi. Yangi avlod darsliklarida bunga alohida e'tibor qaratilgan.

“Bilim daraxtini parvarishlash” o’yini. Rossiyalik pedagog Ye. E. Moroz o’quvchilarda kitob o’qishga, kitobxonlikka bo’lgan mehrni uyg’otish maqsadida **“Bilim daraxtini parvarishlash”** o’yinini taklif etadi. O’yin jarayonida plakatdan foydalanish tavsiya etiladi. Plakatda ertak daraxti tasvirlanadi. Alohida barglarga bolalar uylarida ota-onalari bilan o’qigan ertaklarning nomlari yoziladi. **“Ertak daraxti”**ni tasvirlashda ota-onalar ham ishtirok etadi. O’quvchilar darsga kelganlarida o’zlari o’qigan ertaklarning nomi yozilgan bargni **“Ertak daraxti”**ga yopishtiradilar. Dars boshlangandan so’ng bolalar o’qituvchi bilan birgalikda sinf doskasi oldiga kelib, **“Ertak daraxti”**ga ilgan barglarini ko’rsatadilar va ertakning mazmunini qisqacha bayon etadilar.

“Pechak guli” metodi. Mazkur metod 4K modelining aynan 1K va 2K komponentlarini, ya’ni **kommunikativlik** va **kollektivizm**ni uyg’un rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda pechak guli bargi (yoki shunga o’xshash qog’ozdan tayyorlangan barg)ni qo’lida ushlab turgan o’quvchi darslikdagi matn asosida bitta savol tuzib, bargni ikkinchi o’quvchiga uzatadi. Ikkinchi o’quvchi xohlisa yoddan, topa olmasa kitobdan foydalanib savolga javob beradi. Shundan so’ng u ham uchinchi sherigiga savol berib, bargni uzatadi. Bu metod o’quvchilarning diqqatini darsga jalb etish bilan birga, ularning fanga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, u o’quvchilarning hayot bilan, tashqi muhit va turli vaziyatlar bilan bog’liq hodisalarga nisbatan o’z munosabatini erkin ifodalash ko’nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metoddan o’qituvchi nazorati ostida to’g’ri foydalanilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Quyidagi jadvalda ushbu metodning asosiy mazmuni ochib berilgan.



Shu tarzda qo’lidagi pechakgul o’quvchilar qo’lida aylanadi. Savolga mustaqil javob bergan o’quvchiga ikki ball, kitobdan foydalangan o’quvchiga bir balldan berib boriladi

Natija va muhokama

Axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko’rsatdi. Shuningdek, interaktiv topshiriqlar o’quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytirib, axborotni chuqurroq o’zlashtirishga xizmat qildi.

Multimedia ilovalar asosida tashkil etilgan mashg’ulotlar natijasida o’quvchilarning:



Topshiriq.

Mehribon qush

Bahor fasli edi. Kichkina qushcha daraxt shoxida in qurdi. Kunlardan bir kuni kuchli shamol bo’lib, in buzildi. Qushcha juda xafa bo’ldi. Shu payt bir bola kelib, qushchani inini yana tiklab berdi. Qushcha xursand bo’lib sayray boshladi. Bola esa qushchaga mehr bilan qaradi

1-vazifa. Axborotni topish (Retrieve)

Topshiriq: Matndan foydalanib, savollarga to’liq gap bilan javob yozing.

1. Qushcha qayerda in qurgan?
2. In nima sababdan buzildi?
3. Bolaning qanday yordami bor?

2-vazifa. Xulosa chiqarish (Infer)

Topshiriq: Quyidagi gapni davom ettiring.

Qushcha xursand bo'ldi, chunki _____.

3-vazifa. Talqin qilish va umumlashtirish (Interpret & Integrate)

Topshiriq: Matndan kelib chiqib, "Mehr" so'ziga klaster tuzing (kamida 5 ta tushuncha).

Masalan: yordam, g'amxo'rlik, yaxshilik.

4-vazifa. Sabab-oqibatni aniqlash

Topshiriq: Quyidagi savolga yozma javob bering.

Agar bola yordam bermaganida, qushchani holati qanday bo'lar edi?

5-vazifa. Baholash va shaxsiy munosabat (Evaluate)

Topshiriq: Bolaning xatti-harakatini baholang va fikringizni yozing.

Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilardingiz? Nima uchun?

6-vazifa. Ijodiy topshiriq (Creative response)

Topshiriq: Matn asosida 3–4 gapdan iborat kichik hikoya yozing va unga sarlavha qo'ying.

Topshiriq.



4-sinf (2-qism) "Kichik ustoz" hikoyasi asosida PIRLS topshiriqlarini tuzishga harakat qildik. "Kichik ustoz" hikoyasi asosida tuzilgan mazkur topshiriqlar o'quvchilarning matndan axborot olish, xulosa chiqarish, sabab-oqibatni aniqlash hamda shaxsiy munosabat bildirish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu topshiriqlar PIRLS xalqaro baholash dasturi talablariga mos keladi.

1-topshiriq. Aniq axborotni topish (Retrieve)

Topshiriq: Hikoyadan foydalanib, savollarga to'liq gap bilan javob yozing.

1. Ozodbek qayerdan mehmonga kelgan?
2. U qaysi o'yinni yaxshi bilardi?
3. Anvar va Akbar kimlar?
4. Ozodbek nima sababdan "Kichik ustoz" deb ataldi?

2-topshiriq. Xulosa chiqarish (Infer)

Topshiriq: Quyidagi gaplarni davom ettiring.

5. Ozodbek aka-ukalarni yarashtirdi, chunki _____.
6. Bobosi Ozodbekdan mamnun bo'ldi, sababi _____.

3-topshiriq. Talqin qilish va umumlashtirish (Interpret & Integrate)

Topshiriq: Hikoya asosida "Kichik ustoz" so'ziga klaster tuzing (kamida 6 ta tushuncha).

Masalan: bilim, sabr, o'rgatish, adolat, tinchlantirish, mas'uliyat.

4-topshiriq. Sabab-oqibatni aniqlash

Topshiriq: Jadvalni to'ldiring.

VOQEA	SABAB	OQIBAT
AKA-UKALAR BAHLASHIB QOLDI		
OZODBEK ARALASHDI		
O'YIN QIZIQARLI BO'LDI		

5-topshiriq. Baholash va munosabat bildirish (Evaluate)

Topshiriq: Savollarga o'z fikringizni yozma ravishda bildiring.

7. Sizningcha, Ozodbekning aka-ukalarga munosabati to'g'rimi? Nega?
8. "Kichik bo'lsa ham, ustoz bo'lish mumkin" fikriga munosabatingiz qanday?

6-topshiriq. Ijodiy topshiriq (Extended response)

Topshiriq: Hikoya asosida 5–6 gapdan iborat matn yozing.

Mavzulardan birini tanlang:

- "Men kichik ustoz bo'lsam..."
- "Bilim bilan bahsni yengish"
- "Shaxmat menga nimani o'rgatadi?"

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda multimedia ilovalaridan foydalanish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Multimedia ilovalari axborotni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash va ijodiy qo'llash imkonini beradi. Aynan shu orqali o'quvchilarga mustahkam bilim berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi*.
3. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. *Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari*. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. – Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. *Ta'limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.